UZGASTRADE AKSIYADORLIK JAMIYATI
B U Y R U Q

"9" noyabr 2026 yil. 58-um - son **Toshkent sh.**

Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş va baholaş uslubiyotini tasdiqlaş tögrisida

Özbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarşi kuraşiş tögrisida"gi Qonuni, Özbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarşi kuraşiş agentligining 2026-yil 10-oktabrdagi 104-son va Adliya vazirligining 2026-yil 10-oktabrdagi 2-son qöşma qarori (röyxat raqami 3952, 2026-yil 10-oktabr) bilan tasdiqlangan Davlat organlari va taşkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş va baholaş uslubiyoti talablari ijrosini ta'minlaş, şuningdek, "UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyatida *(keyingi örinlarda – Jamiyat)* korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş, baholaş va kamaytiriş işlarini tizimlaştiriş maqsadida

BUYURAMAN:

1. Özbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarşi kuraşiş agentligining 2026-yil 10-oktabrdagi 104-son va Adliya vazirligining 2026-yil 10-oktabrdagi 2-son qöşma qarori (röyxat raqami 3952, 2026-yil 10-oktabr) bilan tasdiqlangan Davlat organlari va taşkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş va baholaş uslubiyoti ma'lumot hamda ijro uçun qabul qilinsin.

2. "UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş va baholaşning uslubiyoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. "UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 2-fevraldagi 5-um-sonli buyruği **2-ilovasi** (korrupsiya xavf-xatarlarni baholaş uslubiyoti) bekor qilinsin.

4. Komplayens-nazorat bölimi boşliği **(S. Mirzamoydinov)**:

- Jamiyatning tarkibiy bölinmalari bilan hamkorlikda mazkur içki uslubiyot talablari asosida jarayonlar reyestri şakllantirilişini;

- korrupsiyaga oid xavf-xatarlar baholanişini;

- xavf-xatarlar xaritasi va ularni kamaytiriş yoki bartaraf etiş çora-tadbirlari dasturini tayyorlaş hamda belgilangan tartibda monitoring qilinişini ta'minlasin.

5. Jamiyatning barça tarkibiy bölinmalari rahbarlari:

- öz faoliyatiga taalluqli jarayonlar va korrupsiyaviy xavf-xatarlar töğrisidagi ma'lumotlarni komplayens-nazorat bölimiga öz vaqtida va töliq taqdim etilişini;

- mavjud nazorat çoralari va xavf omillari töğrisida töliq hamda işonçli ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etilişini;

- tasdiqlangan çora-tadbirlar ijro etilişini;

- manfaatlar töqnaşuvi va korrupsiyaga oid şubhali holatlar haqida içki me'yoriy hujjatlarga muvofiq xabar berilişi ta'minlasin.

6. Ijro nazorati va murojaatlar bilan işlaş bölimi **(F. Toşpulatov)** mazkur buyruqni Jamiyatning barça tarkibiy bölinmalari e'tiboriga yetkazilişi ta'minlasin.

7. Uşbu buyruq ijrosini nazorat qilişni öz zimmamda qoldiraman.

Boşqaruv raisi **A. Agzamov**

"UzGasTrade" AJ
Boşqaruv raisining
2026 yil " 9 " noyabrdagi
58-UM-son buyruğiga
ILOVA

"UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş va baholaşning USLUBIYOTI

Mazkur içki uslubiyot "UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyati *(keyingi örinlarda – Jamiyat)* faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş, baholaş, kamaytiriş, bartaraf etiş va monitoring qilişning içki tartibini belgilaydi.

Uşbu içki uslubiyot Özbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarşi kuraşiş agentligining 2026-yil 10-oktabrdagi 104-son va Özbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2026-yil 10-oktabrdagi 2-son qarori (röyxat raqami 3952, 2026-yil 10-oktabr) bilan tasdiqlangan Davlat organlari va taşkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş va baholaş uslubiyotiga muvofiq işlab çiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Asosiy tuşunçalar:

korrupsiyaga oid xavf-xatar – mansab yoki xizmat mavqeidan şaxsiy yoxud boşqa şaxs manfaati uçun qonunga xilof ravişda foydalanib korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etiş ehtimoli;

jarayon – Jamiyat funksiyalari doirasidagi özaro boğliq boşqaruv qarorlarini qabul qiliş, harakatlarini amalga oşiriş yoki boşqa yuridik harakatlar majmui;

şubhali holatlar – Jamiyat funksiyalari doirasidagi jarayonlarni amalga oşirişda korrupsiyaviy xatti-harakat ehtimolini körsatuvçi holatlar;

umumiy xavf – mavjud nazorat çoralari ta'siri hisobga olinmagan yoki qisman hisobga olingan xavf-xatar;

qoldiq xavf – aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etiş böyiça belgilangan çoralardan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bölinma – Jamiyatning komplayens-nazorat tuzilmasi.

2. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholaşning *(keyingi örinlarda – baholaş)* maqsadi jarayonlarda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga sabab bölişi mumkin bölgan omillarni aniqlaş, xavf darajasini dalillar bilan asoslaş va örta hamda yuqori xavfli jarayonlar uçun mutanosib çoralarni belgilaş hisoblanadi.

Baholaş qonuniylik, xolislik, asoslanganlik, şaffoflik, jarayonlarga yönaltirilganlik va hisobdorlik prinsiplariga asoslanadi.

3. Baholaş natijasida jarayonlar reyestri, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar xaritasi, xavflarni kamaytiriş yoki bartaraf etiş çora-tadbirlari dasturi, yuqori xavfli lavozimlar

röyxati, korrupsiyaga moyil munosabatlar elektron reyestri uçun ma'lumotlar va monitoring hisoboti şakllantiriladi.

Çora-tadbirlar dasturi va korrupsiyaga oid xavf-xatar yuqori bölgan lavozimlar röyxati belgilangan tartibda **"E-Anticor.uz"** elektron platformasida avtomatik şakllantiriladi.

4. Mazkur içki uslubiyot talablari davlat sirlari yoki qonun bilan qöriqlanadigan boşqa sirni taşkil etuvçi ma'lumotlar bilan işlaşning qonunçilik hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilgan holda qöllaniladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni va muddatlar

5. Baholaş Jamiyat markaziy apparati va uning tarkibiy bölinmalari faoliyatini qamrab oladi.

Baholaşni komplayens-nazorat bölinmasi tomonidan amalga oşiriladi.

Zarur hollarda, baholaşga tarkibiy bölinma rahbarlari va mutaxassislari jalb etilişi mumkin.

6. Jamiyatning birinçi rahbari baholaşning töliqligi, işonçliligi va belgilangan çoralar öz vaqtida bajarilişi uçun javobgar hisoblanadi.

Har bir tarkibiy bölinma rahbarlari jarayonlar, hujjatlar va nazorat çoralari haqida komplayens-nazorat bölimiga doimiy ravişda töliq ma'lumot taqdim etib boradi.

7. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholaş har yili 1-fevralga qadar ötkaziladi.

Xavf-xatarlar xaritasi va çora-tadbirlar dasturi **"E-Anticor.uz"** platformasi orqali har yili 1 martga qadar Özbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarşi kuraşiş agentligi *(keyingi örinlarda – Agentlik)* bilan kelişilgan holda Jamiyatning birinçi rahbari tomomnidan tasdiqlanadi.

8. Qonunçilik yoki içki hujjatlarda jarayonga ta'sir qiluvçi özgarişlar, yangi axborot tizimlari joriy etilişi, yangi xavf aniqlanişi, taşkiliy tuzilma özgarişi yoki vakolatli organning körsatmasi mavjud bölganda navbatdan taşqari baholaş ötkaziladi.

3-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholaş ob'yektlari va jarayonlar reyestri

9. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar Jamiyatning öz funksiyalarini amalga oşiriş bilan boğliq jarayonlar kesimida baholanadi.

10. Jamiyatda baholaş ob'yektlariga quyidagilar kiradi:

- tabiiy gazni xarid qiliş;
- import va eksport şartnomalarini tayyorlaş va ijro etiş;
- kontragentlarni tekşiriş;
- gaz realizatsiyasi böyiça şartnomaviy munosabatlar;
- byudjet mablağlari, subsidiyalar va imtiyozlarni taqsimlaş;
- xaridlarini amalga oşiriş va şartnomalar tuziş;
- xodimlarni tanlaş, işga qabul qiliş va lavozimga tayinlaş;
- jismoniy va yuridik şaxslarning murojaat va şikoyatlarini körib çiqiş;

- Jamiyat faoliyatiga xos bölgan boşqa jarayonlar.

11. Komplayens-nazorat bölimi tomonidan har bir jarayonning huquqiy asoslari, qaror qabul qiliş bosqiçlari, mas'ul tarkibiy bölinma va lavozimlar hamda mavjud nazorat çoralari aniqlanib, mazkur içki uslubiyotning 1-ilovasidagi şaklga muvofiq jarayonlar reyestri tuziladi.

Jamiyat vakolatiga kirmaydigan lisenziyalaş, davlat xizmatlarini körsatiş yoki gaz narxini belgilaş jarayonlari sun'iy ravişda reyestrga kiritişga yöl qöyilmaydi.

4-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş

12. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlar komplayens-nazorat bölimi tomonidan aniqlanadi.

13. Içki axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

- qonunçilik hujjatlari va içki reglamentlar;
- xizmat tekşiruvlari natijalari va materiallari;
- komplayens monitoringi va içki audit natijalari hamda materiallari;
- manfaatlar töqnaşuviga oid ma'lumotlar (deklaratsiyalar);
- xaridlarini amalga oşiriş va şartnoma ma'lumotlari;
- murojaatlar, korrupsiya holatlari töğrisida maxsus aloqa kanallari orqali kelib tuşgan xabarlar;
- xodimlar örtasida ötkazilgan sörovnoma (intervyu)lar natijalari;
- xodimlarni tanlaş, işga qabul qiliş va lavozimga tayinlaşga oid ma'lumotlar.

14. Taşqi axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

- kontragentlar va boşqa şaxslar murojaatlari;
- sud va huquqni muhofaza qiluvçi organlar materiallari;
- oçiq reyestrlar, ommaviy axborot vositalari;
- ijtimoiy tarmoqlar va mustaqil audit natijalari.

15. Şubhali holatlar sifatida qaror mezonlarining noaniqligi, keng diskresion vakolat, vazifalarning bir şaxsda jamlanişi, nazoratning yetarli emasligi, asossiz keçiktiriş yoki tezlaştiriş, manfaatlar töqnaşuvi, takroriy asoslangan şikoyatlar va qarorlarni izsiz yoki yopiq tartibda qabul qiliş tahlil qilinadi.

5-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholaş mezonlari va xavf darajalari

16. Baholaşda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar statistikasi, murojaatlar va xabarlar, jarayonning raqamlaştirilganlik darajasi, elektron harakatlar qayd etilişi, inson omili, huquqiy tartibga solinganlik va diskresion vakolatlar majburiy inobatga olinadi.

17. Baholaş ketma-ketligi:

- jarayonni aniqlaş;
- xavf-xatarlar sabablari va dalillarni aniqlaş;
- mavjud nazoratni tahlil qiliş;
- umumiy xavf darajasini aniqlaş;

- xavf-xatarlarni kamaytiriş çoralarini işlab çiqiş;
- çoralardan keyin qoldiq xavfni qayta baholaş.

18. Korrupsiyaga oid xavf-xatar belgilari ularning tegişli jarayonga ta'sir darajasi, korrupsiyaviy holatning sodir etiliş ehtimoli hamda mavjud nazorat çoralarining yetarliligi inobatga olingan holda oddiy, muhim va oğir toifalarga ajratiladi.

19. **Oddiy xavf belgisi** – jarayonning aniqligi va şaffofligini pasaytiruvçi, biroq özi korrupsiyaviy huquqbuzarlik uçun bevosita imkoniyat yaratmaydigan holat.

20. **Muhim xavf belgisi** – korrupsiyaviy huquqbuzarlik ehtimolini oşiradigan yoki nazoratni çetlab ötişga imkon beradigan holat.

21. **Oğir xavf belgisi** – davlat yoki Jamiyat aktivlari, jismoniy va yuridik şaxslar huquqlariga jiddiy zarar yetkaziş ehtimoli yuqori bölgan holat.

22. Korrupsiyaga oid xavf-xatar darajasi aniqlangan xavf belgilari xususiyatidan kelib çiqib quyidagiça belgilanadi:

past – faqat oddiy xavf belgilari mavjud bölganda;

örta – bitta muhim xavf belgisi mavjud bölib, oğir xavf belgisi mavjud bölmaganda;

yuqori – kamida bitta oğir xavf belgisi yoki ikki va undan ortiq muhim xavf belgisi mavjud bölganda.

23. Yuqori xavf aniqlangan jarayon uçun yangi tartib işlab çiqiladi, jarayon raqamlaştiriladi yoki nazorat mexanizmlari tubdan qayta körib çiqiladi.

Qoldiq xavf amalda joriy etilgan çoralar va ularning işlaşini tasdiqlovçi dalillar asosida alohida belgilanadi.

6-bob. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytiriş va bartaraf etiş

24. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytiriş va bartaraf etiş çoralari xavf-xatar darajasi hamda uning kelib çiqiş sabablaridan kelib çiqqan holda belgilanadi hamda mas'ul ijroçilar, amalga oşiriş muddatlari, natijadorlik indikatorlari va monitoring tartibini nazarda tutadi.

25. Korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni kamaytiriş va bartaraf etiş çoralari quyidagi şakllarda amalga oşirilişi mumkin:

- normativ-huquqiy hujjatlar va içki idoraviy hujjatlar loyihalarini qabul qiliş;
- qaror qabul qiliş mezonlarini aniqlaştiriş;
- inson omilini qisqartiriş va raqamlaştiriş;
- vazifalarni ajratiş;
- davlat organlari va taşkilotlarining xodimlari va jismoniy şaxslar örtasida töğridan-töğri aloqani maksimal darajada çeklaş;
- oçiq ma'lumotlar doirasini kengaytiriş va (yoki) jamoatçilik nazoratini kuçaytiriş;

- manfaatlar töqnaşuvini aniqlaş va boşqariş; içki audit va komplayens nazoratini kuçaytiriş;

- xodimlarni rotatsiya qiliş yoki xavf darajasi yuqori lavozimlar böyiça maxsus talablar belgilaş;

- ortiqça ma'muriy tartib-taomillarni bekor qiliş, ortiqça tartibga soliş mexanizmlarini bekor qiliş, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qiliş muddatlarini qisqartiriş;

- tuşuntiriş işlari, profilaktik suhbatlar ötkaziş va tarğibot;

- işlarini amalga oşiriş;

- xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarşi kuraşiş va uning oldini oliş böyiça içki hujjatlarga töliq rioya etilişini nazorat qiliş.

26. Şartnoma, gaz xaridi, import-eksport va tölov jarayonlarida qarorlarni hujjatlaştiriş (rasmiylaştiriş), kelişiş vakolatlarini ajratiş, kontragentning işonçliligini tekşiriş va tölovni asoslovçi hujjatlar bilan soliştiriş kabi nazorat çoralari qöllaniladi.

Maxfiy yoki tijorat siri ma'lumotlari qonunçilikka muvofiq muhofaza qilinadi.

7-bob. Xarita, elektron platforma va hisobdorlik

27. Komplayens-nazorat bölimi mazkur içki uslubiyotning 2-ilovasidagi şaklga muvofiq xavf-xatarlar xaritasini tuzadi, ma'lumotlarni "E-anticor.uz" platformasiga belgilangan tartibda kiritadi va Agentlik bilan kelişiş jarayonini taşkil etadi.

28. Xarita va jarayonlar reyestri ma'lumotlari asosida çora-tadbirlar dasturi, yuqori xavfli lavozimlar röyxati hamda korrupsiyaga moyil munosabatlar elektron reyestri Agentlik tomonidan belgilangan tartibda şakllantiriladi va yuritiladi.

Bunda elektron reyestrga kiritiş uçun zarur ma'lumotlar Jamiyat tomonidan Agentlikka taqdim etib boriladi va aniqlangan xatolar tuzatib boriladi.

8-bob. Monitoring va qayta baholaş

29. Çora-tadbirlar dasturi ijrosi Agentlik bilan birgalikda har yarim yilda kamida bir marta monitoring qilinadi.

Komplayens-nazorat bölimi ijro uçun dalillarni yiğib boradi va monitoringga tayyorlaydi.

30. Monitoringda çoralar bajarilişi, indikatorlarga erişilişi, nazoratning amalda işlaşi, qoldiq xavf özgarişi va qöşimça çoralarga ehtiyoj tekşiriladi.

Monitoring natijalari böyiça Agentlik tayyorlaydigan hisobot Jamiyatning birinçi rahbari bilan kelişiladi.

Monitoring uçun içki işçi jadval 3-ilovada keltirilgan şaklga muvofiq yuritiladi.

31. Çoralar samara bermagan yoki yangi şubhali holat aniqlanganda jarayon qayta baholanadi. Bunda qöşimça çoralar, mas'ul şaxs va yangi muddat belgilanib, reyestr va xaritaga tegişli özgartirişlar kiritiladi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

32. Mazkur içki uslubiyotning bajarilişi komplayens-nazorat bölimi tomonidan amalga oşiriladi.

Jamiyatning xar bir tarkibiy bölinma rahbarlari ma'lumotlarning töliqligi va öz vaqtida taqdim etilişi uçun mas'ul hisoblanadi.

33. Mazkur içki uslubiyot qoidalari qonunçilik hujjatlari va Davlat organlari va taşkilotlari faoliyatida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlaş va baholaş uslubiyotiga (*röyxat raqami 3952, 2026 yil 10-oktabr*) zid talqin etilmaydi.

Nomuvofiqliklar yuzaga kelgan taqdirda yuqoriroq yuridik kuçga ega hujjat talablari qöllaniladi.

34. Mazkur Uslubiyot talablarini buzilganlikda aybdor bölgan şaxslar qonunçilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar böladi.

"UzGasTrade" aksiyadorlik
jamiyatida korrupsiyaga
oid xavf-xatarlarni aniqlaş va
baholaşning uslubiyotiga
1-ilova

JARAYONLAR REYESTRI

T/r	Jarayon nomi	Huquqiy/ içki asos	Qaror bosqiçlari	Mas'ul bölinma/ lavozim	Mavjud nazorat
1.					
2.					

Izoh:

"UzGasTrade" aksiyadorlik
jamiyatida korrupsiyaga
oid xavf-xatarlarni aniqlaş va
baholaşning uslubiyotiga
2-ilova

KORRUPSIYAGA OID XAVF-XATARLAR XARITASI

T/r	Jarayon/ xavf tavsifi	Dalil va xavf belgilari	Umumiy xavf	Nazorat/ yangi çora	Qoldiq xavf	Mas'ul/ muddat	Indikator
1.							
2.							

Izoh:

"UzGasTrade" aksiyadorlik
jamiyatida korrupsiyaga
oid xavf-xatarlarni aniqlaş va
baholaşning uslubiyotiga
3-ilova

MONITORING UÇUN IÇKI IŞÇI JADVAL

T/r	Çora-tadbir	Mas'ul	Muddat	Indikator	Ijro dalili	Qoldiq xavf özgarişi	Qöşimça çora
1.							
2.							

Eslatma: